

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“TEXNIK TIZIMLARNI BOSHQARISH”

fani

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 700000- Ishlab chiqarish va texnik soha

Ta'lim sohasi: 710000- Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 60712500 - Transport vositalari muhandisligi  
(avtomobil transporti)

Qarshi – 2024 yil



<b>Fan/modul kodi</b> TTB	<b>O'quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr 8</b>	<b>ESTC-kreditlar</b> 4
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim turi</b> O'zbek/Rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b> 60	<b>Jami yuklama (soat)</b> 120
	Texnik tizimlarni boshqarish		
<b>2</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b>—talabalarga avtomobil transport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi va ularga servis usulida xizmat ko'rsatishni boshqarish va tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikma olish, transport vositalarining samaradorligini oshirish, mehnat-material va energetik resurslarni ekspluatatsiya jarayonida tejashni o'rgatishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b>-texnik tizimlarni boshqarishning yangi, zamonaviy uslub va texnologiyalari, axborot ta'minoti, texnik vositalari bilan talabalarni tanishtirish; ishlab-chiqarishni jadallashtirish va boshqarishning zamonaviy usullardan foydalangan holda tarmoqning belgilangan me'yoriy xujjatlari bilan tanishtirish; texnik tizimlarni boshqarish tushunchasini ijtimoiy hayot va insonparvarlik nuqtai nazardan o'rgatish.</p> <p>Fan bo'yicha talabamiz bilimiga, ko'nikma va malakasiga quyidagi talablar qo'yiladi.</p> <p>“Texnik tizimlarni boshqarish” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>texnik tizimlarni boshqarish usullari va texnologiyasi;</li> <li>zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;</li> <li>boshqarishning texnik vositalari;</li> <li>texnik tizimlarni boshqarishda qo'llaniladigan informatsion texnologiyalar</li> <li>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</li> <li>texnik xizmat tarkiblarini;</li> <li>texnik xizmatni tashkil etish usullari va shakllarini;</li> <li>qaror qabul qilish usullari va tasnifi;</li> <li>transport majmuasida boshqarishni bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>transport tizimida boshqarish ma'lumotlarini tahlil etish va qaror qabul qilish;</li> <li>boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar va ularni yuritish;</li> </ul>		

texnik xizmatni sertifikatlash;  
 - axborot turlari, manbalari, ularni to'plash va tahlil qilish;  
 transportda texnik tizimni tashkil etish va boshqarish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**1- Modul. Texnik tizimlarni ishlab chiqarishda boshqarish 1-mavzu. Texnik tizimlarni boshqarish fanining predmeti, vazifasi va manbalari**

Respublikada texnik tizimlarni boshqarish taraqqiyoti bilan bog'liq hukumat qarorlarini o'rganish. Texnik tizimlarni boshqarish fanining asosiy vazifalari va maqsadi. Avtomobil transport! korxonalarini boshqarishni hozirgi davrdagi holati va taraqqiyoti.

**2-mavzu. Texnik tizimlar va ularni boshqarish usullari haqida tushuncha**  
 Katta tizimlarni asosiy xossalari va tasnifi. Tizim tarkibining aloqalari. Boshqarish qoidalari, bosqichlari, usullarini tasnifi. Tizimni boshqaruvchi va boshqarilayotgan elementlari hamda ularning orasidagi bog'lanishlar. Boshqarishning qattiq va egiluvchan tizimlari. Tizimni reaktivligi. Taklif va talab balansida korxonani boshqarishni muvofiqlashtirib turish. Texnik maqsadi.

**3-mavzu. Texnik tizimlarning ishlab chiqarish tarkiblari va ularga ta'sir etuvchi omillar**

Texnik tizimlarni ishlab chiqarish tarkiblari, vazifalari. Tarkiblarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Avtotransport korxonalarini boshqarish va ishlab chiqarish tarkiblarining namunaviy variantlari.

**4-mavzu. Texnik xizmatni boshqarishni tashkil qilish shakli va usullari**

Texnik xizmatni tashkiliy-ishlab chiqarish tarkibi. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash (T) ni tashkil etish shakli va usullari. Avtomobillarga TXK va T ni boshqarish va tashkil qilishni markazlashtirilgan tizimi. Avtomobilarni TXK ga yuborishni rejalashtirish.

**5-mavzu. Zamonaviy avtotransport korxonalarini texnik xizmatining tarkiblari, vazifalari va xodimlari**

Zamonaviy avtotransport korxonalarini uyushmalari, hissadorlik jamiyatlari, servis markazlari, maxsustrans korxonalarini texnik xizmatining tarkibi, vazifalari, resurslari va xodimlari. Texnik xizmat xodimlari tarkibini umumiy tasnifi, ko'nimligi. Mutaxassislariga bo'lgan asosiy talablar va ular bilan korxonalarini ta'minlanganligi. Texnik xizmat xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish. Xodimlarni mansab pog'onalariga ko'tarish sxemasi.

**2-Modul. Ishlab chiqarishda qaror qabul qilish va jarayonni modellashtirish**



**6-mavzu. Ishlab chiqarishni boshqarishda qaror qabul qilish usuli va tasnifi**

Qapop qabul qilish jarayoni. Qapop qabul qilish usuli va tasnifi. Anqlik sharoitlarda qaror qabul qilish. Axborot etarli bo'lmagan sharoitlarda qaror qabul qilish.

Qaror qabul qilishda mutaxassislar fikrini integratsiyasi. Ekspert baholash orqali mutaxassislar fikrini olish va qaror qabul qilish.

Apriori tabaqalash, konkordatsiya koeffitsienti. Apriori tabaqalashni afzalliklari va kamchiliklari.

**7-mavzu. Texnik tizimlarni axborot bilan ta'minlash va ularni boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar va hujjatlarni yuritish**

Axborot turlari, to'plash usuli. Axborot to'plash manbalari. Axborotlarga qo'yiladigan talablar. Axborot tashuvchilari.

ATKlarida texnik xizmatda qo'llaniladigan hujjatlar, ularni turlari va rasmiylashtirish tartibi. Hujjatlar tarkibi va ularga bo'lgan talablar. Hujjatlar aylanmasi, hajmi.

**8-mavzu. Qarorni ishlab chiqishda va holatlarni baholashda turli usullarni va o'xshatishli (imitatsiya) modellashtirish amda ishbiarmonlar o'yinlarini qo'llash**

Delfi usuli - integratsion muolaja. Delfi usulini afzalliklari va kamchiliklari, so'rov va intervyu yordamida holatlarni baholash.

O'xshatish - tushunchasi. O'xshatishli modellashtirishni qo'llashni shart-sharoitlari. Boshqaruvda model tushunchasi. Boshqarish va texnologik masalalarni hal etishda o'xshatishli modellashtirishni qo'llash. Ishbiarmonlar o'yini.

**9-mavzu. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish, sertifikatlash.**

Servis korxonalarining turlari, farqlanish jihatlari. Servis korxonalarida xizmatni tashkil etish. Buyurtmalarni qabul qilish, avtosalonlarni xizmat ko'rsatish uchun tayyorlash, buyurtmalarni operatsiya turlariga qarab joylashtirish jihatlari. Mahsulot va xizmatni sertifikatlash. Sertifikatlash sxemasi va muddatlari, majburiy sertifikatlanadigan xizmatlar va buyum nomlari. Xizmatlarni sertifikatlash tartibi, xizmat va buyumlarni sertifikatlashda sinov laboratoriyalarining o'zmi. Chet el tashkilotlari tomonidan berilgan moslik sertifikatlarining tan olinishi.

**10-mavzu. Texnik tizimlar bakalavri, muhandisi va magistrining ishbiarmonlik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar**

Texnik tizimda muhandis, bakalavr bilimlarining o'suvchanligi. Texnik tizimning ishlab chiqarish samaradorligiga insonparvarlik omilining ta'siri. Magistr, bakalavr, muhandis tushunchasi, ularga ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar.

**11-mavzu. Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omillarining tutgan o'rnini va texnik vositalar**

Boshqarish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik tomonlari. Mehnat faolligi, mehnat qiluvchining shu mehnat natijasidan manfaatdorligi.

Boshqarishni texnik vositalar kompleksiga qo'yiladigan talablar. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish bo'limi xodimlari bilan texnik vositalar kompleksi orasidagi o'zaro bog'lanishni tashkil etish. Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonini boshqarish vositalari. Aloqa va nazorat texnik vositalari.

**III. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Texnik tizimlarni boshqarish fanidan laboratoriya mashg'ulotlari zamonaviy kompyuter va o'qitishning texnik vositalari bilan jihatlangan maxsus auditoriyalar, laboratoriya xonalari hamda etakchi avtotransport korxonalarida o'tkaziladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlanadi, unda ishning maqsadi, mazmuni, bajarish tartibi, ishlatiladigan jihozlar keltirilgan bo'lib, o'z ichiga quyidagi mavzularni oladi:

1. Bosh mexanik bo'limining ishini o'rganish.

2. Avtotransport korxonalarida texnik - nazorat bo'limining ishini o'rganish.

3. Ishlab chiqarishni boshqarishda axborot texnologiyalarining qo'llanish tizimini o'rganish.

4. Soha bo'yicha ishbiarmonlar uyini tashkil etish.

5. Avtotransport korxonalarida ishlatiladigan texnik-texnologik xujjatlar va xujjatlarni yuritish.

6. Texnik bo'limining ishini o'rganish.

7. Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash jarayonlarini tashkil etish usullarini o'rganish.

8. Servis markazlarida texnik tizimni boshqarishni o'rganish.

9. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini o'rganish.  
10. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibini o'rganish.

11. Avtotransport korxonasida boshqarish tizimi tarkiblarini o'rganish.

12. Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimi va ularni baholash turlarini o'rganish.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ishini bajarishdan maqsad - fan buyicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini ilm va texnika yangiliklarini hisobga olib mustahkamlash va chukurlashtirishdan iborat.



Mustakil ish tegishli me'yoriy xujjatlar talablarini hisobga olib yozma - réferát, grafik - xisobiy ish va h.k. shaklda rasmiylashtiriladi. Mustakil ish mavzulari zamonaviy avtotransport korxonalarida transport vositalariga va texnologik jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni boshqarish, tashkil etishni zamronaviy usullari bo'yicha bajariladi.

**Mustaqil ish mavzulari:**

1. Avtotransport korxonalarining zamonaviy tarkiblari, vazifalari, printsipial tasvirlari
2. Texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarining zamonaviy tarkiblari, vazifalari, printsipial tasvirlari
3. Texnik xizmat ko'rsatish (TXK-1, TXK-2) mintaqalarini tashkiliy tarkibi, ishlarini tashkil etish, qo'llaniladigan jihozlar
4. Joriy ta'mirlash mintaqalarini tashkiliy tarkibi, ishlarini tashkil etish, qo'llaniladigan jihozlar
5. Ishlab chiqarish ustaxonalarini tarkibi, vazifalari qo'llaniladigan jihozlari
6. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish usullari
7. ATKda boshqarish tizimi tarkiblari
8. ATK bo'limlari tarkibi va vazifalari
9. ATK texnik xizmatning markazlashgan boshqaruv tizimi
10. ATK muhandis-texnik xizmatining tarkibi, vazifalari va tashkiliy tuzilishi
11. Ishlab chiqarish taxlil qilishda ishbiarmon o'yinlarida foydalanish
12. Qaror qabul qilishning tabaqalash usuli
13. Axborot turlari, manbalari, to'plash usullari
14. Qaror qabul qilish Delfi usuli
15. ATKda ishlatiladigan hujjatlar
16. Zamonaviy ATKlarni boshqarish tarkiblari
17. ATK hodimlari, tarkibi, vazifalari
18. Xodimlarni tayyorlash, baholash turlari
19. Bakalavrlarning ishbiarmonlik xususiyatlari
20. ATK tarkibining turli shakllarini namunalari
21. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasida boshqarish tizimini
22. Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasidan litsenziya olish tartibi
23. Avtotransport korxonasida boshqarish tizimi tarkiblari
24. Avtotransport korxonasi hodimlarini tayyorlash tizimini va ularni baholash turlari
25. O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti va avtomobil sanoatini rivojlantirish bo'yicha miyoriy hujjatlari

<p>26. Avtomobil transporti tashkiloti xodimlari kasbiy mahoratining avtomobillar ekspluatatsiyasi va ta'mirlash texnik jarayoni samaradorligiga ta'siri</p> <p>27. Avtotransport vositalari sifatining ularni ekspluatatsiya qilish samaradorligiga ta'siri</p> <p>28. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi texnologik jarayonlarini boshqarishning dasturiy maqsadli usuli</p> <p>29. Avtomobil transporti servisi texnik ekspluatatsiyasi texnologik jarayonlarini boshqarish usullari</p> <p>30. Avtotransport tashkilotida avtomobillar TS va ta'mirlash texnologik jarayonlarini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari</p>	<p><b>3</b></p> <p><b>V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mashg'ulotlar o'tkazishning asosiy shakllari va metodlari hamda ularning samaradorligini oshirish omillari;</li> <li>- fan bo'yicha tahsil oluvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashni tashkil etish shakli, metodlari va vositalari;</li> <li>- tahsil oluvchilarning o'quv faoliyatlarini faollashtirish omillari haqida tasavvurga ega bo'lishi</li> <li>- fanni o'qitish prinsiplari;</li> <li>- o'qish jarayonini tashkil etish, tahsil oluvchilar diqqat-etibori va yaxlit mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari;</li> <li>- turli mashg'ulotlarni faol tashkil etish, o'tkazish va natijalarini nazorat qila bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>- turli ko'rinishdagi mashg'ulotlar o'tkazish: seminar, amaliy va shu kabilari;</li> <li>- mashg'ulotlar rejasi va ma'ruzalar matnini tayyorlash;</li> <li>- tahsil oluvchilar bilimi va mustaqil o'zi ustida ishlashni nazorat qilishning tashkiliy hamda o'quv-uslubiy ta'minoti;</li> <li>- o'quv yili, yarim yillik va shu kabilari davrida o'quv ishlarini rejalashtirishni tashkil etish;</li> <li>- o'quv jarayonida o'quv texnik vosita va kompyuterlar qo'llash, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash va ishlab chiqish;</li> <li>- maxsus fanlar bo'yicha turli o'quv uslubiy materiallar ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>
---	--



<p>4</p> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va usullari:</b></p> <p>ma'ruzalar; interfaol pedagogik va grafik organayzerlar; guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual ishlamlalar; jamo'bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar</p>	<p><b>VII. Kredit olish uchun talablar:</b></p> <p>Nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettirish, o'rganilayotgan jarayonlar bo'yicha mustaqil fikr yuritish, oraliq nazorat topshiriqlaridagi vazifalarni hamda yakuniy nazoratlar bo'yicha yozma ishlarni topshirish.</p>
<p>6</p> <p><b>VIII. Talabalar bilimni baholash me'zonlari</b></p> <p><b>5 (A'lo)</b> - fanning nazariy va uslubiy tushunchalarini to'liq o'zlashtira olishi; - fanning ko'rsatkichlarini iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikrlay olish; - o'rganilayotgan jarayonlarni mustaqil kuzatish va tavsiflash; - mehnat munosabatlarini tahlili natijalarini to'g'ri aks ettira olishi; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va to'liq baholash; - tahlil natijalariga ko'ra holatni to'g'ri va xolis baholash; - o'rganilayotgan iqtisodiy holat va jarayon haqida tasavvurga ega bo'lish; - analitik jadvallar yordamida o'rganilayotgan jarayonlarni tahlil qilish va tegishli qarorlar qabul qilish</p>	<p><b>4 (Yaxshi)</b> - o'rganilayotgan jarayonlarni mustaqil kuzatish va tavsiflash; - tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish - o'rganilayotgan iqtisodiy holat va jarayon haqida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va to'liq baholash; - jadvallar yordamida o'rganilayotgan jarayonlarni tahlil qilish va tegishli qarorlar qabul qilish.</p> <p><b>3 (Qoniqarli)</b> - o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va to'liq baholash; - o'rganilayotgan iqtisodiy holat va jarayon haqida tasavvurga ega bo'lish; - o'rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil qilish.</p> <p><b>2 (Qoniqsiz)</b> - fanning nazariy va metodologik asoslarini bilmaslik; - iqtisodiy holatlar va jarayonlarni tushunmaslik. - o'rganilayotgan jarayonlarga usullarni qo'llashni bilmaslik.</p>

<p>7</p>	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Texnik tizimlarni boshqarish Toshkent 2019 I. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha 4-nashridan (prof. Kuznestov E.S. tahriri ostida. M.: Nauka 2004y. - 535 b.) tarjima prof. Sidiqnarov Q.M. umumiy tahriri ostida, Toshkent "VORIS-NASHRIYOT", 2006 y.-670 b.</li> <li>2. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi avtotransport oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan. Prof. Sidiqnarov Q.M. umumiy tahriri ostida, Toshkent "VORIS-NASHRIYOT", 2008 y. - 560 b.</li> <li>3. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmogi korxonalarini loyihalash. T. "VORIS-NASHRIYOT", 2006 y. - 259 b.</li> <li>4. Avtotransport vositalari servisi. Servis korxonalarini texnologik jihozlash. M.A. Ikromov va boshqalar. Toshkent :TAYI, " Rizaev X.XK" 2014,- 160b.</li> <li>5. Andrew A.Rezin PhD Automotive service management. Principles into practice (third edition). Hudson Street, New York, USA 2019. -336 pages.</li> <li>6. Texnik tizimlarni boshqarish. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5310600-Yer usti transport tizimlari va ulaming ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti bo'yicha) 5111000-Kasb ta'limi (Yer usti transport tizimlari va ulaming ekspluatatsiyasi) yo'nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan. S.A. Usmonov. -T.: "Fan va texnologiya", 2019 y., 328 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>7. Mirziyoev Sh.M. "Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 29 dekabr №271-272</li> <li>8. Texnicheskaya ekspluatatsiya avtomobiley. Uchebnik dlya VUZov. Pod red. E.S. Kuznestova. - M.: Nauka, 2004 g.</li> <li>9. Kuznestov E.S. Upravlenie texnicheskimi sistemami. -M: MADI, 2001 g.</li> <li>10. Kuznestov E.S. Teoreticheskie i normativnie osnovni texnicheskoy ekspluatatsii i servisa avtomobiley. - M.: MADI, 2000.- 69 s.</li> <li>11. «O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakat tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risidagi Nizom» - Toshkent, 1999 y. - 212 b.</li> <li>12. Valijonov R., Qabulov O. Menejment asoslari. - Toshkent, 1997 y.</li> <li>13. Maxmudov N. va boshqalar. O'zbek tilida ish yuritish. - Toshkent, 1990 y.</li> <li>14. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. -Toshkent, 1998 y.</li> <li>15. MuminjonovN.M., Usmonov D.I. va boshqalar. "Texnik tizimlarni boshqarish" fanidan laboratoriya ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy</li> </ol>
----------	--



	<p>ko'rsatmalar to'plami. TAYI, 2008 y., 30 bet.</p> <p>16. Usmonov D.I., Muminjonov N.M., Usmonov S.A. "Texnik tizimlarni boshqarish" o'quv qo'llanma. TAYI, 2010 y.- 212 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axbotot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></li> <li>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></li> <li>3. <a href="http://www.motorpage.ru">http://www.motorpage.ru</a></li> <li>4. <a href="http://auto.ru/">http://auto.ru/</a></li> <li>5. <a href="http://www.as066.narod.ru/pr.e.g.htm">http://www.as066.narod.ru/pr.e.g.htm</a></li> <li>6. <a href="http://www.zandv.ru/use.php">http://www.zandv.ru/use.php</a></li> </ol>
8	<p><b>O'quv dasturi</b> Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan va institut kengashining 2024 yil "___" _____ "___" -sonli bayonnomasi bilan maqullangan.</p>
9	<p><b>Fan/Modul uchun ma'sullar:</b> U.N. Abduraxmonov-QMII "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasini professor v. b.</p>
10	<p><b>Taqrizchilar:</b> QMIII "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasini Sh.A. Azizov QMIII "Qishloq xo'jalik mashinalari va servisi" kafedrasini dotsentini T.X.Razzoqov</p>